

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

NAMANGAN TO'QIMACHILIK SANOATI INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"

Namangan to'qimachilik sanoati
instituti rektori



Yolimov Q.M. Xoliqov
2024 yil "28" 08.

CHARM VA MO'YNA TEXNOLOGIYASI
FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	700 000	Muhandislik ishlov berish va qurilish
Ta'lif sohasi:	720 000	Ishlab chiqarish va ishlov berish
Ta'lif yo'nalishi:	60721200	Yengil sanoat buyumlari konstruktsiyasini ishlash va texnologiyasi (charm va mo'yna texnologiyasi)

Namangan - 2023

Fan/ modul kodi CHMT1736	O‘quv yili 2024-2025 2025-2026	Semestr 5,6,7	Kreditlar 36(10,16,10)
Fan /modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek	Haftadagi dars soatlari 10,16,10
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)
	Charm va mo‘yna texnologiyasi	540	540
2.	I. Fanni mazmuni: Fanni o‘qitishdan maqsad – charm va mo‘yna xomashyosi turlarining tavsiflari, ularning xossalari va ishlatalishi, xomashyoga ishlov berish jarayonlarining mohiyati va amalda bajarilishi, shuningdek xomashyoni va tayyor masulotlarni saqlash va nazorat etish tartiblari haqida yetarli bilim va ko‘nikmalarni hosil qilish. Fanning vazifasi – charm va mo‘yna ishlab chiqarish korxonalarini, charm va mo‘yna texnologiyasidagi barcha turdagi xomashyodan to‘liq va unumli foydalanish masalalarini yechish uslublari, texnologik jarayonlari va ularni texnologik me’yorlarini o‘rgatishdir. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Fanning mazmuni. Charm va mo‘yna texnologiyasining rivojlanish tarixi. Charm-poyabzal sanoati mahalliy xomashyo hayvonlar terisidan yumshoq va qattiq charm, tabiiy va sun’iy charmdan poyabzal, shuningdek, telpak, ot-ulov asboblari, attorlik buyumlari, to‘qimachilik va mashina uchun detallar ishlab chiqaradi. Charm ishlab chiqarish hunarmandchilikning qadimiyligi turlaridan biri hisoblanadi. Toshkent, Samarqand, Buhoro, Qo‘qon, Xorazmda ko‘nchilik teridan turli nav charmlar tayyorlash. Mamlakatimiz iqtisodiyotini ko‘tarish, import mahsulotlari va xomasyolarini kamaytirish. 2-mavzu. Charm va mo‘yna ishlab chiqarish korxonalarining umumiy tavsifi, suyuqlik bilan ishlov berishning asosiy parametrlari. Charm va mo‘yna xomashyosi hayvon terilari haqida. Charm ishlab chiqarishda teridan jun, epidermis, teri osti to‘qimasi ajratib olinish. Mo‘yna ishlab chiqarishda teridan teri osti to‘qimasi, qo‘y-po‘stin ishlab chiqarishda derma qismini ajratish.	Jami yuklama (soat) 1080	

3-mavzu. Hayvonlarni so‘yish mavsumlari va usullari.

Terilarni shilish, hayvon tanasidan terisini ajratib olish. Hayvon so‘ylgandan keyin uning yog‘i, qoni va muskul suyuqliklari. Hayvonni so‘yilishida terini to‘g‘ri ajratilishi.

4-mavzu. Charm va mo‘yna ishlab chiqarishda xomashyoning yaroqliligin belgilaydigan muhim xususiyatlar.

Terining qalinligini sarf bo‘ladigan xomashyoning miqdori charm maqsadiga bog‘liqligi. Cho‘zishda mustahkamlikning chegarasi va ishlab chiqarish jarayonlariga terining qalinligiga bog‘liqligi.

5-mavzu. Charm xomashyolarining asosiy turlari haqida qisqacha ma’lumot.

Charm xomashyolari kichik, katta va cho‘chqa terilariga bo‘linishi. Kichik xomashyolariga yirik shoxli mollarning buzoq terilari (o‘lik tug‘ilgan buzoqcha, emadigan buzoqcha, buzoqlar), toy (o‘lik tug‘ilgan toycha, toy), qo‘y (rus va chod qo‘ylari) jun qoplamining holatiga qarab junli qo‘y, yarim junli, cho‘l qo‘yining yalang‘och terisi, echki (cho‘l, angor va yovvoyi) terilariga bo‘linishi.

6-mavzu. Mo‘yna va qo‘y po‘stin ishlab chiqarish xomashyolarining ayrim turlari haqida qisqacha ma’lumot.

XX asrda qorako‘lchilik. Avstriya, Afg‘oniston, Eron, Fransiya, AQSH va boshqa mamlakatlardagi qorako‘l materiallar.

7-mavzu. Fizik kimyoviy jarayonlar. Kollagenga elektritolitlarning ta’siri.

Charm va mo‘yna xomashyolariga ishlov berishda fizik-kimyoviy jarayonlar. Tuzlar, kislotalar va ishqorlar eritmasi. Terilar kollageni gidrofilligi.

8-mavzu. Ivitish jarayoni.

Ivitishning maqsadi. Ho‘l tuzlangan xomashyoni ivitish. Quritilgan xomashyoni ivitish. Ivitishdagi nuqsonlar va ivitish jarayonini nazorat qilish.

9-mavzu. Junsizlantirish jarayoni.

Junsizlantirish yoki tuksizlantirish. Junni teri to‘qimalari bilan bog‘lanishini susaytirish mexanizmi. Terilarning ag‘darma tomoniga reaktivlarni surtish. Kislota bilan junsizlantirish.

10-mavzu. Kullash jarayoni.

Kullash jarayoni. Kullash jarayonida dermaning o‘zgarishi. Kul suvi bilan ishlov berishda ba’zi omillarning ta’siri. Kul suvi bilan ishlov berishning charm sifatiga ta’siri. Kullash nuqsonlari. Tagcharm ishlab chiqarishda kullash jarayonining asosiy parametrlari. Kul suvi bilan ishlov berishni nazorat qilish.

11-mavzu. Kulsizlantirish. Yumshatish jarayoni.

Kulsizlantirishning asosiy maqsadi. Kulsizlantirish jarayonini nazorat qilish va jarayonining amalda bajarilishi. To‘qimalaridagi ishqoriy ohak suvini

neytrallash. Teri bo‘kishini kamaytirish.

12-mavzu. Pikellash jarayoni.

Pikellash jarayoni haqida tushuncha. Pikellashda ta’sir etadigan omillar. Teri to‘qimasining qalnligi va zichligi. Pikel tarkibi va konsentratsiyasi. Jarayonning davomiyligi. Suyuqlik koeffitsiyenti.

13-mavzu. Tuzli suv bilan ishlov berish.

Teri to‘qimalariga yuqori konsentratsiyali tuzli suv bilan ishlov berish. Teri to‘qimasidagi librilla strukturalarsi. Tuzli suvni teri to‘qimasiga ta’siri.

14-mavzu. Arpa suvi bilan ishlov berish

Arpa suvi bilan ishlov berish usuli. Achitish usulining kamchiliklari. Achitishga ta’sir etuvchi omillar. Achitish jarayonining amalda bajarilishi. Achitish jarayonini nazorat qilish.

15-mavzu. Tayyorlov sexlarida bajariladigan mexanik operatsiyalar.

Tayyorlov sexlarida bajariladigan mexanik operatsiyalar. Mezdralash jarayoni. Teridan junni ajratish.

16-mavzu. Yuzani mexanik usulda tozalash. Terini qalinlikka qarab ikkiga bo‘lish.

Yuzani mexanik usulda tozalash. Terini qalinligiga qarab ikkiga bo‘lish. Chepraklash (elementlarga ajratish). Junni mexanik usulda ajratish. Terilarni konturlash.

17-mavzu. Oshlash jarayonida derma xossalaring o‘zgarishi.

Oshlash jarayoni haqida umumiy tushuncha. Oshlash jarayonida derma xossalaring o‘zgarishi. Turli xii oshlovchilarning oshlash xususiyati. Oshlashda teri oqsil strukturasida ko‘ndalang bog‘lanishlarning hosil bo‘lishini tasdiqlovchi natijalar. Mexanik xossalarning o‘zgarishi.

18-mavzu. Xrom oshlovchi birikmalar. Xrom kompleks birikmalarining tuzilishi.

Oshlovchilarning qo‘llanilishi. Xrom kompleks zarralarining tuzilishi. Xrom komplekslari zaryadi. Xrom kompleks birikmalarning fazoviy tuzilishi. Trans-ta’sir hodisasi.

19-mavzu. Tarkibida gidrokso va ol guruxlari bo‘lgan Cr(III) birikmalari.

Charm va mo‘yna sanoatida xrom birikmalarining tutgan o‘rni. Xrom birikmalarining tabiatda tarqalishi. Uch valentli xrom birikmalarining xossalari. Olti valentli xrom birikmalarining xossalari. Xrom (III) birikmalari va ularning gidrolizi. Olifikatsiya jarayonlari.

20-mavzu. Xrom oshlovchi birikmalarning tavsifi.

Asoslik xrom birikmalari. Olifikatsiya darajasi. Loyqalanish soni. Kompleks ionning zaryad belgisi.

21-mavzu. Charm va mo‘ynani oshlashda qo‘llaniladigan xrom birikmalari.

Xrom birikmalarining qo‘llanilishi. Xrom kompleks birikmalari.

Niqoblangan xrom birikmalari.

22-mavzu. Xrom oshlovchi birikmalarni tayyorlash.

Xrom oshlovchilarni tayyorlash uchun dastlabki materiallar. Xrom oshlovchilarni tayyorlashda qo'llaniladigan qaytaruvchilar tabiatiga bog'liq bo'lган kompleks ionlar tarkibi va ularning xossalari. Xrom oshlovchi birikmalarni xromatlardan olish jarayoni. Monoxromatdan xrom ekstrakti olish jarayoni. Xrom angidrididan xrom ekstraktini olish jarayoni. Uch valentli xrom birikmalaridan xrom ekstraktini olish.

23-mavzu. Alyuminiy oshlovchi birikmalar.

Aluminiy birikmalarining oshlashda ishlatalishi. Barqaror aluminiy tuzlarining olinishi. Aluminiy oshlovchilarining olinishi. Aluminiy oshlovchilar bilan kollagen o'rtasidagi o'zaro bog'lanish.

24-mavzu. Sirkoniy tuzlari bilan oshlashning amalda qo'llanilishi.

Sirkoniy oshlovchilar bilan oshlangan charm xossalari. Sirkoniy birikmalarining gidrolizi. Sirkoniy sulfatlari. Sirkoniy oshlovchi birikmalarining kollagen bilan o'zaro bog'lanishi.

25-mavzu. Titan tuzlari bilan oshlash.

Titan oshlavchi birikmalarning oshlash xususiyati. Titan oshlovchi birikmalari. Titan tuzlari bilan kollagen o'rtasidagi bog'lanishlar.

26-mavzu. Geteropoliyadroli kompleks oshlovchi birikmalarning qo'llanilishi.

Geteropoliyadroli oshlovchi kompleks birikmalarning qo'llanilishi. Geteropoliyadroli oshlovchi kompleks birikmalar haqida tushuncha. Geteropoliyadroli oshlovchi kompleks birikmalarning amalda qo'llanilishi.

27-mavzu. Xrom oshlovchi birikmalar bilan kollagen o'rtasida hosil bo'lgan bog'lanishlarning tabiat.

Kollagendagi funksional guruhlar. Kollagen funksional guruhlari bilan xrom birikmalarining hosil qilgan bog'lanishlari to'grisida olimlar fikri. Xrom birikmalari va kollagenning funksional guruhlari bilan hosil qilgan bog'lanishlari. Oshlovchilar bilan kollagen orasida hosil bo'lgan bog'lanishlar.

28-mavzu. Xrom birikmalar bilan oshlash haqida umumiyl tushuncha.

Xrom birikmalar bilan oshlash haqida umumiyl tushuncha. Xrom oshlovchi birikmalarining derma va junga diffuziyalanishi. Xrom oshlovchi birikmalar bilan oqsillarning bog'lanishi.

29-mavzu. Xrom bilan oshlashning turlari va ularning amalda bajarilishi.

Bir vannali oshlash usuli. Bir vannali oshlashning turlari. Quruq oshlash. Pikelsiz oshlash. Mo'yna ishlab chiqarishda bir vannali oshlash. Po'stibop terilarni oshlash.

30-mavzu. Ikki vannali oshlash usuli.

Ikki vannali oshlash usuli. «Original» usul bo'yicha oshlash. Bir va ikki vannali usulda oshlangan charm xossalari. Oshlash jarayonining nazorati.

32-mavzu. Neytrallash jarayoni.

Neytrallash jarayoni. Neytrallashning maqsadi. Neytrallash jarayoni ketma-ketligi. Neytrallash jarayonini nazorat qilish.

33-mavzu. Xrom charmlarining oshsizlanishi.

Xrom charmlarining oshsizlanishi. Turli hil birikmalarning oshsizlantirish xususiyatlari. Organik erituvchilar muhitida nam xrom charmlarini pishish haroratiga ta'siri.

34-mavzu. Oddiy organik oshlovchilar. Aldegidlar bilan oshlash.

Aldegidlar bllan oshlash. Alifatik qatordagagi aldegidlar oshlash xususiyati. Glutar aldegidi bilan oshlash. Glutar aldegidi polimerlanish xossasi.

35-mavzu. Yog'lar bilan oshlash.

Zamsha charmlarini oshlash haqida tushuncha. Oshlovchi yog'lar. Baxmalsimon charmlarni amalda oshlash.

36-mavzu. Murakkab organik oshlovchi birikmalar.

O'simlik oshlovchi moddalar (tannidlar). Organik oshlovchi moddalar tasnifi. Notannidlar. Suvda erimaydigan moddalar.

37-mavzu. Tannidlarning kollagen bilan o'zaro ta'sir nazariyasi.

Tannidlarning kollagen bilan o'zaro ta'sir nazariyasi. Tannidlarning dermaga diffuziyasi. Teri to'qimasining oshlashga tayyorlanganlik holati. Oshlovchi eritmaning tabiat. Mexanik ta'sir.

38-mavzu. Tannidlarning kollagen bilan bog'lanishi. Tannidlar bilan oshlash.

Kollagen strukturalarining bog'langanlik darajasi. Oshlovchi eritma tabiat. Neytral tuzlarning ta'siri. Oshlovchi eritma konsentratsiyasi. Tannidlar bilan oshlash.

39-mavzu. Sintetik oshlovchi moddalar. Sintanlar. Yordamchi sintetik oshlovchilar.

Sintetik oshlovchi moddalarning qo'llanilishi haqida. Yordamchi sintetik oshlovchilar. Sintetik oshlovchilar olinish sxemasi.

40-mavzu. Tannidlarni o'rnini bosuvchi sintetik oshlovchilar.

Tannidlarni o'rnini bosuvchi sintetik oshlovchilar. Polikondensatsiya (novalak smolasining olinishi). Maqsadli sintanlar. Yog'lantiruvchi sintanlar.

41-mavzu. Aralash oshlash usuli.

Aralash oshlash usullari. Tannidlar, sintetik oshlovchilar va xrom birikmalari bilan aralash oshlash usuli. Charm yarimmahsulotini xromlash. Xromlashdan so'ng yotqizib qo'yish. Tannidlar va sintetik oshlovchilar bilan to'yintirish. Tannidlar bilan oshga to'yintirishda xrom tuzlarining yuvilishi. Xromtannid aralash oshlash usulida, teriga ketma-ket ishlov berish.

42-mavzu. Aralash oshlash usullarining amalda bajarilishi.

Xrom, sirkoniy, titan, aluminiy, va sintetik oshlovchilar bilan oshlash. Xrom sirkoniy sintanlar bilan oshlash. Xrom alyumosirkoniysintanli aralash oshlash usuli. Titan sirkoniysintanli aralash oshlash usuli. Aralash oshlash

usuli bo'yicha charmni oshga to'yintirishda aluminiy tuzlaridan foydalanish. Formaldegidni aralash oshlash usulida qo'llanilishi.

43-mavzu. Oshlashda qo'llaniladigan polimerlar.

Charm sanoatida polimerlarning oshlash jarayonida qo'llanilishining dolzarbligi. Oshlash jarayonida qo'llaniladigan reaksiyon faol sintetik polimeriar. Polimerlar bilan oshlangan charmning xossalari. Suvda eruvchan polimerlar bilan oshlash. Mochevina - formaldegid smola bilan oshlash. Ditsiandiamid smola bilan oshlash. Suvda eruvchan polimerlarning oshlashda qo'llanilishi. Polimerlarning kollagen bilan o'zaro bog'lanishi. Aralash oshlash usulida polimerlarni qo'llash.

44-mavzu. To'ldirish jarayoni.

To'ldirishning maqsadi. Poyabzalning ustki qismi uchun xrom charmlarni to'ldirish. Suvda eruvchan smolalar bilan charmni to'ldirish. Aminosmolalarning to'ldirish xususiyati. Charmning silliqlanishi va havo o'tkazuvchanligi. Mustahkamlik xossalari. Polimerlarni suvli dispersiya bilan to'ldirish. Charmni yog'lash va to'ldirish jarayonlarida qo'llanilgan to'ldiruvchilar. Charmni yog'lash va to'ldirish jarayonlarida MFS (mochevinoformaldegidli smola) kompozitsiyalarini DYOK (distillangan yog'kislotalari) qo'llash.

45-mavzu. Mo'ynani bo'yashdan oldin o'tkaziladigan tayyorlov jarayonlari.

Jarayon maqsadi. O'latmani neytrallash. Jarayonni o'tkazish shartlari. O'latmani neytrallovchi ishqoriy moddalarning tavsifi. O'latmani neytrallash jarayonining boshqa jarayonlar bilan bog'liqligi. Jarayonning amalda borishi.

46-mavzu. Mo'ynani dorilash usuli.

Jarayonni olib borishdan maqsad. Xrompik bilan dorilash. Jarayon muddati. Dorivorlar bilan ishlov berish tartibi. Temir tuzlari bilan dorilash. Mis tuzlari bilan dorilash. Mo'ynani oqartirish.

47-mavzu. Charmni bo'yash jarayoni.

Charmni bo'yashda qo'llaniladigan bo'yoqlar. Rangdorlik nazariyasining asosiy holatlari. Moddalar rangining nimalarga bog'liqligi. Charm uchun ishlatiladigan bo'yoqlarga qo'yiladigan talablar. Bo'yoqlar tasnifi. Asosli, kislotali, bevosita dorilovchi bo'yoqlar. Bo'yoqlarni charm strukturasiga diffuziyalanishi.

48-mavzu. Mo'ynani bo'yash jarayoni.

Bo'yash uchun yarimmahsulotlar va mo'ynani bo'yash usullari. Bo'yovchi eritma tarkibi. Surtish usulining aerograflari, trafaretli, rezevrli bo'yash usullari. Trafaretli bo'yash. Rezervli bo'yash.

49-mavzu. Yog'lovchi materiallar haqida ma'lumot.

Charm va mo'yna ishlab chiqarishda qo'llaniladigan yog'lovchi moddalar. Dengiz hayvonlari yog'lari. Tabiiy moylar va yog'lar. Neftni qayta ishslash mahsulotlari va sintetik moylovchi moddalar.

50-mavzu. Charm va mo'ynani yog'lash usullari.

Yog‘lantirishning maqsadi. Shimilgan yog‘ va yog‘simon moddalar. Yog‘lashning mohiyati. Charm yarim mahsulotini yog‘lash. Xromli oshlangan charmlarda yog‘ moddalari.

51-mavzu. Ho‘llangan charm yarim mahsulotini yog‘ eritmalari va aralashmalari bilan yog‘lash.

Ho‘llangan charm yarim mahsulotini yog‘ eritmalari va aralashmalari bilan yog‘lash. Emulsion yog‘lantirish. Yog‘ emulsiyalari tayyorlashning usullari.

52-mavzu. Quritish jarayoni.

Quritish jarayonini amalga oshirish tartibi. Konvektiv quritish. Kontaktli quritish. Infraqizil nurlar bilan quritish.

53-mavzu. Ho‘llash jarayoni.

Charm yarim mahsulotini ho‘llashning uch asosiy usuli. Yarim mahsulotni suyuqlik bilan bevosita kontakti. Qizdirilgan nam havo atmosferasida ho‘llash. Termodiffuzion usul.

54-mavzu. Qoplاب bo‘yash.

Qoplاب bo‘yashning maqsadi. Qoplاب bo‘yashning mohiyati. Qoplاب bo‘yashda qoplama bo‘yoqqa qo‘yiladigan talablar. Qoplama bo‘yoq tarkibi. Qoplama bo‘yashdan oldin charm sirtining xossalari. Charm yuza sirtining zaryadi.

55-mavzu. Polimer parda hosil qiluvchilar.

Polimer parda hosil qiluvchilar. Akril efirlarining sopolimerlanishi. Poliakrilatlarning strukturalanishi va ularning sopolimerlari. Emulsion qoplamalar. Charmni pardozlashda qo‘llaniladigan dispersiyalar. Akril emulsiyasi.

56-mavzu. Poliuretanlar asosidagi qoplamalar.

Poliuretanlar asosidagi qoplamalar. Poliuretan asosidagi parda xossalari. Poliuretanning suvli dispersiyalar. Poliuretan laki.

57-mavzu. Oqsillar asosidagi qoplamalar.

Oqsil asosidagi parda hosil qiluvchilar. Kazein olish. Amalda qo‘llaniladigan kazein eritmalari. Charmni pardozlashda qo‘llaniladigan eritmalari. Qon va qon albumini. Tuxum albumini. Suvda erimaydigan moddalari. Kazein qoplamasining charmga adgeziyasи.

58-mavzu. Nitroselluloza va uning asosidagi parda hosil qiluvchilar.

Nitroselluloza asosidagi qoplamalar. Faol erituvchilar. Plastifikatorlar. Nitrosellulozalarning suvli emulsiyalarining amalda qo‘llanilishi.

59-mavzu. Oqova suvlarini tozalash usullari.

Chiqindi suvlarni mexanik tozalash. Kimyoviy tozalash. Biologik tozalash. Atrof-muhitni muhofaza qilish.

III. Laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Laboratoriya mashg‘ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

1. Texnika xavfsizlik qoidalari.

2. Charm va mo‘yna tarkibidagi namlik miqdorini aniqlash.
3. Tag charmning namlik miqdorini aniqlash.
4. Egar-jabduq charmning namlik miqdorini aniqlash.
5. Bulg‘ori charmning namlik miqdorini aniqlash.
6. Mo‘ynaning namlik miqdorini aniqlash.
7. Qorako‘l terilari namlik miqdori.
8. Tag charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
9. Xromli charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
10. Egar-jabduq charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
11. Bulg‘ori charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
12. Charm va mo‘ynani zichligini va g‘ovakligini aniqlash
13. Suyuq xrom oshlovchisini tayyorlar.
14. Suvni yumshatish va suv analizi.
15. Suyuq xromli oshlovchini tahlil qilish.
16. Charmning gidrotermik bardoshligini aniqlash.
17. Sirkva sulfat kislota tahlili pikellash jarayonida aralashma tarkibida umumiy kislota miqdorini aniqlash.
18. Junning eruvchanligini aniqlash.
19. Charm va mo‘ynanining pishish haroratini aniqlash.
20. Xrom oshlovchi birikmalarining derma va junga diffuziyalanishi hodisasini o‘rganish
21. Zamsha charmining oshlash yog‘lar bilan va baxmalsimon charmlarning oshlash usullarini o‘rganish
22. Charmni qalinligini aniqlashni o‘rganish.
23. Charm va mo‘ynanining cho‘ziluvchanligini aniqlash.
24. Charm va mo‘ynanining nisbiy uzayishni aniqlash.
25. Charm va mo‘ynanining qoldiq uzayishi aniqlash.
26. Murakkab organik oshlovchi birikmalarni tahlil etish.
27. Charm va mo‘ynanining havo o‘tkazuvchanligini aniqlash.
28. Charm va mo‘ynani bo‘yashda qo‘llaniladigan bo‘yoqlarni tahlil etish
29. Mo‘ynanining charm to‘qimasini suvli tortmasining pH muhitini aniqlash.
30. Xrom tuzlari bilan mo‘ynani oshlash usullari
31. Charm va mo‘ynanining tarkibidagi yog‘ moddalarini miqdorini aniqlash.
32. Charm va mo‘ynani qoplamlari bo‘yash usullarini o‘rganish.
33. Charmdagi bug‘ning sig‘imini aniqlash.
34. Charm va mo‘ynanining namlikni yutishi va ho‘llanishini aniqlash.
35. Charm xomashyosini suyuqlik bilan ishlov berishni o‘rganish.
36. Charm va mo‘ynanining yog‘lash usullarini o‘rganish
37. MMG-1500M mashinasining ishlash prinsipini o‘rganish.
38. Charm oshlanganligini nazorat qilish.

39. Mo‘yna yarimmahsulotlari va momiq mo‘ynali xomashyolarni nuqsonlarini aniqlash va navlarga ajratish.
40. Charm poyabzal nuqsonlarini aniqlash, sifatini baholash va navlarga ajratish.
41. Mineral moddalar miqdorini aniqlash. Yog‘ moddalari miqdorini aniqlash.
42. Natriy xlor miqdorini aniqlash. Xomashyoning pishish haroratini aniqlash.
43. Junning sifatini tahlil qilish.
44. Charm oshlanganligi va pishganligini aniqlash.
45. Charmning bug‘ o‘tkazuvchanligini aniqlash.
46. Charmning namlanishi va suv o‘tkazuvchanligini aniqlash.
47. Mikroskop ostida tolalar tuzilishini ko‘rish.
48. Charmning mexanik xossalalarini aniqlash.
49. Charmning zichlik va g‘ovakligini aniqlash.
50. Taglikbop sun’iy materiallarning zichligini aniqlash.
51. Taglikbop sun’iy materiallar navlarini aniqlash va sirpanish koeffisiyentini aniqlash.
52. Charm va mo‘yna xomashyosining massasi va usol ko‘rsatkichini aniqlash.
53. Charm va mo‘yna xomashyosida osh tuzi miqdorini aniqlash.
54. Charm xomashyosida kalsiylatsiyalangan soda miqdorini aniqlash.
55. Polimer parda hosil qiluvchilar

Laboratoriya mashg‘ulotlari multimedya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhg‘a bir professor-o‘qituvchi tomonidan o‘tkazilishi zarur. Mashg‘ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o‘tilishi, mos ravishda munosib pedagog va axborot texnologiyalar qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Hayvonlarni so‘yish mavsumlari va usullari.
2. Fizik kimyoviy jarayonlar.
3. Kollagenga elektrolitlarning ta’siri.
4. Ivitish jarayoni.
5. Junsizlantirish jarayoni
6. Kullash jarayoni.
7. Kulsizlantirish. Yumshatish jarayoni.
8. Pikellash jarayoni.
9. Tuzli suv bilan ishlov berish.
10. Arpa suvi bilan ishlov berish
11. Tayyorlov sexlarida bajariladigan mexanik operatsiyalar.
12. Yuzani mexanik usulda tozalash.

- 13.Terini qalinlikka qarab ikkiga bo‘lish.
- 14.Oshlash jarayonida derma xossalaring o‘zgarishi.
- 15.Xrom oshlovchi birikmalarni tayyorlash.
- 16.Alyuminiy oshlovchi birikmalar.
- 17.Sirkoniylari bilan oshlashning amalda qo‘llanilishi.
- 18.Titan tuzlari bilan oshlash.
- 19.Geteropoliyadroli kompleks oshlovchi birikmalarning qo‘llanilishi.
- 20.Mo‘ynani bo‘yashdan oldin o‘tkaziladigan tayyorlov jarayonlari.
- 21.Mo‘ynani dorilash usuli.
- 22.Chamjni bo‘yash jarayoni.
- 23.Ho‘llangan charm yarim mahsulotini yog‘ eritmalari va aralashmalari bilan yog‘lash.
- 24.Quritish jaryoni.
- 25.Ho‘llash jarayoni.
- 26.Texnika xavfsizlik qoidalari.
- 27.Chamning tarkibidagi namlik miqdorini aniqlash.
- 28.Tag charmning namlik miqdorini aniqlash.
- 29.Egar-jabduq charmning namlik miqdorini aniqlash.
- 30.Bulg‘ori charmning namlik miqdorini aniqlash.
- 31.Mo‘ynanining namlik miqdorini aniqlash.
- 32.Qorako`l terilari namlik miqdori.
- 33.Tag charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
- 34.Xromli charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
- 35.Egar-jabduqda charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
- 36.Bulg‘ori charmning yog‘ moddalar miqdorini aniqlash.
- 37.Chamr va mo‘ynani zichligini va g‘ovakligini aniqlash.
- 38.Suyuq xrom oshlovchisini tayyorlar.
- 39.Suvni yumshatish va suv analizi.
- 40.Suyuq xromli oshlovchini tahlil etish.
- 41.Chamning gidrotermik bardoshligini aniqlash.
- 42.Sirka va sulfat kislota tahlili pikellash jarayonida aralashma tarkibida umumiy kislota miqdorini aniqlash.
- 43.Junning eruvchanligini aniqlash.
- 44.Chamr va mo‘ynanining pishish haroratini aniqlash.
- 45.Xrom oshlovchi birikmalarining derma va junga diffuziyalanishi xodisasini o‘rganish.
- 46.Zamsha charmining oshlash yog‘lar bilan va baxmalsimon charmlarning oshlash usullarini o‘rganish.
- 47.Chamni qalinligini aniqlashni o‘rganish.
- 48.Chamr va mo‘ynanining cho‘ziluvchanligini aniqlash.
- 49.Chamr va mo‘ynanining nisbiy uzayishni aniqlash.
- 50.Chamr va mo‘ynanining qoldiq uzayishi aniqlash.
- 51.Murakkab organik oshlovchi birikmalarni tahlil etish.

	<p>52. Charm va mo‘ynaning havo o‘tkazuvchanligini aniqlash.</p> <p>53. Charm va mo‘ynani bo‘yashda qo‘llaniladigan bo‘yoqlarni tahlil etish.</p> <p>54. Mo‘ynaning charm to‘qimasini suvli pH muhitini aniqlash.</p> <p>55. Xrom tuzlari bilan mo‘ynani oshlash usullari.</p> <p>56. Charm va mo‘ynaning tarkibidagi yog‘ moddalari miqdorini aniqlash.</p> <p>57. Charm va mo‘ynani qoplamlari bo‘yash usullarini o‘rganish.</p> <p>58. Charmdagi bug‘ning sig‘imini aniqlash.</p> <p>59. Charm va mo‘ynaning namlikni yutishi va ho‘llanishini aniqlash.</p> <p>60. Charm xomashyosini suyuqlik bilan ishlov berishni o‘rganish.</p> <p>61. Charm va mo‘ynaning yog‘lash usullarini o‘rganish.</p> <p>62. MMG-1500M mashinasining ishlash prinsipini o‘rganish.</p> <p>63. Charm oshlanganligini nazorat qilish.</p> <p>64. Mo‘yna yarim mahsulotlari va momiq mo‘ynali xomashyolarni nuqsonlarini aniqlash va navlarga ajratish.</p> <p>65. Charm poyabzal nuqsonlarini aniqlash, sifatini baholash va navlarga ajratish.</p> <p>66. Mineral moddalar miqdorini aniqlash. Yog‘ moddalari miqdorini aniqlash.</p> <p>67. Natriy xlor miqdorini aniqlash. Xomashyoning pishish haroratini aniqlash.</p> <p>68. Junning sifatini tahlil qilish.</p> <p>69. Charm oshlanganligi va pishganligini aniqlash.</p> <p>70. Charmning bug‘ o‘tkazuvchanligini aniqlash.</p> <p>71. Charmning namlanishi va suv o‘tkazuvchanligini aniqlash.</p> <p>72. Mikroskop ostida tolalar tuzilishini ko‘rish.</p> <p>73. Charmning mexanik xossalari aniqlash.</p> <p>74. Charmning zichlik va g‘ovakligini aniqlash.</p> <p>75. Taglikbop sun’iy materiallarning zichligini aniqlash.</p> <p>76. Taglikbop sun’iy materiallar navlarini aniqlash va sirpanish koeffisiyentini aniqlash.</p> <p>77. Charm va mo‘yna xomashyosining massasi va usol ko‘rsatkichini aniqlash.</p> <p>78. Charm va mo‘yna xomashyosida osh tuzi miqdorini aniqlash.</p> <p>79. Charm xomashyosida kalsiyatsiyalangan soda miqdorini aniqlash.</p> <p>80. Polimer parda hosil qiluvchilar.</p> <p>Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan amaliy tajribalar o‘tkazish, sinov natijalarini tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.</p> <p>Izox: * Ege University, 915 QS World University Rankings, 915 o‘rin</p> <p>** Namangan shahar “Yuksalish charm sanoat servis” MCHJ va Namangan shahar “Gold Leather Export Import” MCHJ korxonalari tavsiyasi asosida olingan.</p>
3	<p style="text-align: center;">V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari</p> <p style="text-align: center;">Talaba bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Charm va mo‘yna texnologik xosslarini, oshlash tizimlarini, tarixiy

	<p>davrlarini;</p> <ul style="list-style-type: none"> - Teriga donalab va partiyalab ishlov berish, charm zavodlari asosiy sexlarini; - Charm ishlab chiqarish sanoatida fizik-kimyoviy jarayonlar, kollagenga elektrolitlarning ta'siri ivitish jarayoni nuqsonlari va nazoratini; - xomashyoning xossalari va holatiga ivitish suyuqligining tarkibi va harorati, suyuqlik koeffisiyenti, ivitish davomiyligi va mexanik ta'sirlarga bog'liqligi haqidagi tasavvurga ega bo'lishi; (bilim) - Terini junsizlantirish, kameralarda ma'lum harorat ta'sirida saqlash, charm ishlab chiqarishda kullash jarayonning asosiy parametrlari, ularni nazorat qilish va jarayonni amalda bajarilishini; - Arpa suvi bilan ishlov berish, mezdralash, chepraklash (elementlarga ajratishni bilishi va ulardan foydalana olishi; (ko'nikma)) - Xom-ashyo turiga qarab charm mezdrasini tavsifi; - Oshlangan charmdan chiqadigan chiqindilar; - Oshlash jarayoni haqida umumiyl tushuncha; - Oshlash jarayonida derma xossalaring o'zgarishi; - Xrom kompleks birikmalarining xossalarni bilish va amalda qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lif texnologiyalari va metodlari</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari; - interfaol keys-stadilar; - kichik guruhlarda ishlash; - taqdimotlar qilish; - jamoa bo'lib ishlash; - vedio materiyallar tayyorlash; - individual ishlash; - blokcheyn texnologiyasi; - sun'iy intellekt; - bulutli (cloud); - teachery; - loom.com.
5	<p style="text-align: center;">VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. M.I.Temirova Tarmoq kimyosi va texnologiyasi. Darslik. -T.: Dizayn-press, 2013. -328 bet. 2. M.I.Temirova, T.J.Qodirov. Charm va mo'yna texnologiyasi. Darslik. -T.: Turon-iqbol, 2005. -256 bet. <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 3. С.С.Мақсадов Чарм, мўйна кимёси ва технологияси. Дарслик. -Т.:

	<p>Турон-иқбол, 2004. -127 бет.</p> <p>4. А.В.Островская, И.Ш.Абдуллин. Химия и технология кожи и меха. Учебное пособие / – К.: Изд-во Казан. гос. технол. ун-та, 2006. - 139 с.</p> <p>5. В.П.Тихонова, Г.Р.Рахматуллина. Спецглавы технологии кожи. Учебное пособие/ – К.: Изд-во Казан. гос. технол. ун-та, 2010. – 133 с.</p> <p>6. Dok. Dr. Yalcin Dikmelik. “Deri Teknolojisi”. Darslik Hurriyet Matbaasi 5501 Sk. No. 6, Kat Tuna Mahallesi Camdibi / IZMIR</p> <p>Axborot manbaalari</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://ziyonet.uz 2. https://www.northampton.ac.uk/courses/leather-technology-bsc-hons/; 3. www.hurriyetmatbaa.com 4. https://deri.ege.edu.tr/eng-4518/history.html.
7	Namangan to‘qimachilik sanoati instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.
8	<p>Fan / modul uchun mas’ul:</p> <p>A.O.Xomidjonov. -Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoat mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasи, dotsenti, PhD.</p>
9	<p>Taqrizchilar:</p> <p>A.A.Xojiyev -Namangan to‘qimachilik sanoati instituti Yengil sanoati mahsulotlarini konstruksiyalash va texnologiyasi kafedrasи professori v.b.</p> <p>X.Qutfiddinov -“Gold Leather Export Import” MChJ direktori.</p> <p>B.Qurbanov -“Yuksalish charm sanoat servis” MCHJ direktori.</p>